

MASOFAVIY TA'LIM - SIRTQI O'QISHNING YANGI SHAKLI

Pozilov Mamajon Narzikulovich
Jizzax politexnika instituti professori

Annotatsiya. Ushbu maqolada Oliy ta'lim tizimida masofaviy va sirtqi ta'lim shakllarining o'ziga xos jihatlari, o'quv jarayonini tashkil etish tartibi, o'xshash va farqli tomonlari hamda talabalarning bilim olish imkoniyatlari tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar. masofaviy ta'lim, sinxron rejim, asinxron rejim, semestr, oraliq baholash, yakuniy baholash, metodik ko'rsatma, sirtqi ta'lim

ДИСТАНЦИОННОЕ ОБУЧЕНИЕ — НОВАЯ ФОРМА ЗАОЧНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Позилев Мамаджон Нарзикулович
Профессор Джизакского политехнического института

Аннотация. В статье анализируются особенности организации учебного процесса в дистанционной и заочной формах обучения в системе высшего образования, выявляются их сходства и различия, а также рассматриваются возможности студентов в освоении образовательных программ.

Ключевые слова: дистанционное обучение, синхронный режим, асинхронный режим, семестр, промежуточная аттестация, итоговая аттестация, методическое руководство, заочное обучение

DISTANCE LEARNING – A NEW FORM OF PART-TIME EDUCATION

Pozilov Mamajon Narzikulovich
Professor of the Jizzakh polytechnic institute

Annotation. The article analyzes the specific features of organizing the learning process in distance and part-time education within higher education,

highlights their similarities and differences, and examines students' opportunities in mastering educational programs.

Keywords: distance learning, synchronous mode, asynchronous mode, semester, midterm evaluation, final evaluation, methodological guide, correspondence education

Oliy ta'lim tizimida masofadan o'qitish uslubi shakllari qo'llanilmoqda. Masofaviy ta'limning maqsadi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish asosida talabanning turar joyidan qat'i nazar, unga ta'lim dasturlarini o'zlashtirish uchun imkoniyat taqdim etish, talabalarning qiziqishlari, iqtidori va ehtiyojlariga muvofiq kasbiy salohiyatini rivojlantirishdan iborat, lekin bunday ta'rif sirtqi ta'limga ham berilishi mumkin[1, 2]. Shundan kelib chiqib ushbu maqolada masofaviy va sirtqi ta'limda o'quv jarayonini tashkil qilinishi tahlil qilingan va ularni bir-biriga mutanosiblik tomonlari aniqlangan.

Sirtqi va masofaviy ta'lim uchun talabalarni ta'lim tashkilotiga qabul qilish, ularning o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish boshqa ta'lim shakllari uchun qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda bir xil shaklda amalga oshirilmoqda. Sirtqi va masofaviy ta'lim shakli to'lov-kontrakt asosida amalga oshirilmoqda, lekin ikkala ta'lim shaklida to'lov-kontrakt mablag'i miqdori bir-biridan farq qiladi.

Masofaviy ta'lim bo'yicha o'qish davomiyligi tegishli bakalavriat ta'lim yo'nalishi va magistratura mutaxassisligi bo'yicha kunduzgi ta'lim shakli uchun belgilangan o'qish davomiyligi muddatidan kam bo'lishi mumkin emasligi belgilangan. Sirtqi ta'limda esa o'qish muddati kamida 5 yil qilib belgilangan. Bundan chiqdi, talabalar masofaviy ta'limda sirtqi ta'limga nisbatan kamroq o'qiydi.

Binobarin, masofaviy ta'lim bo'yicha o'quv jarayoni davlat ta'lim standarti va malaka talablari asosida ishlab chiqilgan o'quv reja va o'quv dasturlar asosida amalga oshiriladi. Sirtqi ta'limda esa o'quv jarayoni ta'lim sohalarining davlat

ta'lim standartlari va tegishli ta'lim yo'nalishlari malaka talablari asosida tayyorlangan hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan kunduzgi ta'lim uchun tasdiqlangan o'quv rejasi va fan dasturlari asosida tashkil etiladi.

Masofaviy ta'lim shaklida o'qishga qabul qilingan talaba quyidagi hollarda oliy ta'lim tashkilotiga shaxsan tashrif buyurishi shartligi belgilangan:

- o'quv jarayoni boshlanishidan avval — masofaviy ta'limni boshqarish bo'yicha dasturiy ta'minot — LMS (Learning Management Systems) platformasida ro'yxatdan o'tish uchun;

- har semestr yakunida — yakuniy nazorat topshirish uchun.

Shuningdek, yakuniy davlat attestatsiyasi, bitiruv malakaviy va magistrlik ishi himoyasi bevosita oliy ta'lim tashkilotida an'anaviy tarzda amalga oshirilishi, ularni sinxron yoki asinxron rejimida qabul qilishga yo'l qo'yilmasligi belgilangan.

Sirtqi ta'lim talabasi uchun o'qishga qabul qilingan o'quv yili boshida (odatda, sentyabr-oktyabr oylarida) bevosita oliy ta'lim muassasasida 10 kunlik o'quv jarayoni bilan dastlabki tanishtiruv hamda semestr davomida o'qitiladigan fanlar bo'yicha qisqacha (ishchi o'quv rejasida belgilangan hajmda) ma'ruza, amaliy, laboratoriya va seminar mashg'ulotlari o'tkaziladi. Talabalarga mavzular bo'yicha topshiriqlar va ularni bajarish yuzasidan metodik ko'rsatmalar beriladi. O'quv sessiyasigacha bo'lgan muddatda sirtqi ta'limda o'qish mustaqil, jumladan, masofadan turib ta'lim olish shaklida amalga oshiriladi.

Ish faoliyatini masofaviy ta'lim bilan qo'shib olib borayotgan talabalarga semestr oxirida yakuniy baholashdan o'tish, bitiruvchilarga esa yakuniy davlat attestatsiyasini topshirish, bitiruv malakaviy va magistrlik ishini himoya qilish uchun kamida 15 kalendar kun muddatga ish haqi saqlangan holda ta'til beriladi. Sirtqi ta'lim talabasi ham har bir semestr davomida bir marta oliy ta'lim muassasasiga o'quv sessiyasiga chaqiriladi. Buning uchun unga o'quv sessiyasi boshlanishiga qadar (kamida 10 kun oldin) belgilangan shaklda xabarnoma yuboriladi.

Masofaviy ta'lim shaklida o'qiydigan talabalarga amaliyotlar o'quv rejada belgilangan muddatlarda mehnat faoliyatini olib borayotgan talabaning ish joyida, talabaning ish joyi bakalavriat ta'lim yo'nalishiga (magistratura mutaxassisligiga) mos bo'lmagan yoxud ish bilan ta'minlanmagan holda ta'lim tashkiloti bilan kelishuvga erishgan tashkilotlarda amalga oshiriladi. Sirtqi ta'lim talabalarining malakaviy amaliyotlari esa ishchi o'quv rejasida belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi. Odatda, bitiruv malakaviy ishi oldi amaliyotidan boshqa amaliyotlar (ta'lim yo'nalishiga mos bo'lgan holda) talabaning ishlab turgan ish joyida mustaqil ravishda o'tkaziladi.

O'quv jarayonida barcha dars mashg'ulotlari, amaliyotlar va mustaqil ishlar hamda ular bo'yicha talabalarni baholash masofaviy ta'limni boshqarish bo'yicha dasturiy ta'minot — LMS platformasida nazarda tutilishi lozim. Dars mashg'ulotlari, talabalarining bilimini baholash va o'quv jarayonini nazorat qilish masofaviy ta'limni boshqarish bo'yicha dasturiy ta'minot — LMS platformasi orqali amalga oshiriladi.

Sirtqi ta'limda navbatdagi semestr davomida o'qitiladigan fanlar qisqacha (ishchi o'quv rejasida belgilangan hajmda) ma'ruza, amaliy, laboratoriya va seminar mashg'ulotlari orqali tanishtiriladi. Ushbu mashg'ulotlar talabaga navbatdagi semestr davomida fanlarni o'zlashtirishi va topshiriqlarni bajarishi uchun asosiy va qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlash usullari va texnologiyalarini o'rgatishga qaratiladi. Mavzular bo'yicha topshiriqlar bilan ularni bajarish yuzasidan metodik ko'rsatmalar beriladi.

Talaba fan bo'yicha topshiriqlarni bajargandan so'ng, uni fan o'qituvchisiga belgilangan muddatlarda (odatda, masofadan turib Internet orqali) yuboradi hamda qayddan o'tkazadi. Fan o'qituvchisi talaba yuborgan materiallarni tekshirib, oraliq ishi sifatida baholaydi. Fan o'qituvchisi mavzular bo'yicha navbatdagi topshiriqlar va ko'rsatmalarni yuborishi, shuningdek, onlayn rejimida o'quv mashg'ulotlarini o'tkazishi mumkin.

Sirtqi ta'limda oraliq va yakuniy baholash turlari joriy qilingan bo'lsa, masofaviy ta'limda esa faqat yakuniy hazorat o'tkaziladi. Sirtqi ta'limdagi oraliq baholash masofaviy aloqa orqali onlayn rejimida o'tkazilishi ham mumkin.

Masofaviy ta'limda bir o'qituvchiga to'g'ri keladigan talabalar soni nisbatining cheklangan normativlari 1:50 nisbatda belgilangan. Sirtqi ta'limda esa o'qish bo'yicha oliy ta'lim yo'nalishlariga qarab bir o'qituvchiga to'g'ri keladigan talabalar soni nisbati 1:20 etib belgilangan. Bundan ko'rinib turibdiki, masofaviy ta'lim ucnun kam professor-o'qituvchilar jalb etiladi, lekin masofaviy o'qitish shaklida o'quv jarayonini tashkil etishda qilinadigan ishlar(o'quv reja va dasturlardagi barcha fanlardan masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish orqali amalga oshiriladigan, o'quv kontentini qamrab oladigan elektron o'quv-metodik majmualar, shuningdek, ilmiy va o'quv adabiyotlarining elektron bazasi).

Shunday qilib, sirtqi ta'limda masofadan turib o'qitish talabalarning asosiy ish joyidan ajralmagan holda o'quv rejasidagi barcha fan dasturlarida belgilangan bilimlarni mustaqil masofadan turib o'zlashtirish asosida amalga oshirilishi mumkinligini hisobga olsak, sirtqi va masofaviy ta'lim bir-biriga yaqindir, ularning bir-biriga o'xshash tomonlari ko'pdir. Shuning uchun ham masofaviy ta'lim uslubi bu sirtqi o'qishning yangi shakli va mustaqil o'qishdir. Masofaviy o'qitish - eng yaxshi an'anaviy va innavatsion metodlar, o'qitish vositalari va shakllarini o'z ichiga olgan sirtqi va kunduzgi ta'lim singari axborot va telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan ta'lim sohasidir. Bu insonning mustaqil fikrlash, holatni to'g'ri baholash, xulosa va bashorat qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 21-noyabrdagi 930-son qarori bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasasida sirtqi (maxsus sirtqi) ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risida Nizom"

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 3-oktabrdagi 559-son [qarori bilan tadiqlangan](#) “Oliy ta‘lim tashkilotlarida masofaviy ta‘limni tashkil etish tartibi to‘g‘risida Nizom”.